

## MULOQOTDA NOVERBAL VOSITALARNING ORNI VA AHAMIYATI

Andijon Davlat Chet Tilla Instituti  
Phd Muzaffar Abdumatalibovich Qurbanov

E-mail: [adusifat@gmail.com](mailto:adusifat@gmail.com)

Tel: +998936310004

2-kurs magistranti Alimova Ma'muraxon Raximberdiyevna

E-mail: [mamuraalimova@gmail.com](mailto:mamuraalimova@gmail.com)

Tel: +998934425050

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada noverbal vositalarning o'rganilish darajasi, ularning tarixi, paralingvistik vositalar ifodalangan. Hamda noverbal vositalarning turlari, ularning jamiyatdagi orni va ahmiyati yoritilgan.

**Annotation:** This article describes the learning level of nonverbal tools, history and paralingvistic tools. And types of non-verbal communication, their role and importance in society are highlighted.

**Kalit so'zlar:** nutq, muloqot, verbal, noverbal, paralingvistik vositalar, kommunikatsiya, mimika.

### KIRISH

Muloqot til vositasi bilan- verbal yoki tilning ishtirokisiz noverbal amalga oshirilishi mumkin. Verbal muloqot jarayonida soz muhim orin tutadi. Muomala faqat kishilar ortasidagi axborot almashishdangina iborat bolmay, balkinkishilarning his hayajonlarini ham qamrab oladi. Muomalaning bu tomoni noverbal kommunikatsiyani tashkil etadi.

Insonlar muloqot jarayonida verbal vositalardan tashqari turli harakatlardan, mimikalar, kulgu, ohanglar va boshqalardan iborat noverbal vositalardan keng foydalaniib keladilar. Mimika, ohanglar, pauza, hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z harakatlari, yuz ifodalari bularning barchasi o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to`ldirib keladi.

Paralingvistika aloqa – aralashuvida muomalada muhim vazifa bajaradi. Agar nutq ushbu vositalar komagisiz tinglovchiga ifodalansilsa fikr unchalik tasir kuchiga ega bolmaydi. Aytilishi mumkin bolgan xabar quruq malumot ichiga qoladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>1. <https://cyberleninka.ru/article/n/paralingvistik-imo-ishoraga-asoslangan-frazeologizmlar>

Pralingvistika fani haqida koplab olimlarlar izlanishlar olib borgan. Quyidagi O.Savajo, G.V.Kolshanskiy , Y.A.Zemskaya, N.I. Jinkin, K.Blansh,Benvenist, R.Yakobson,R.Bart kabi olimlarning faoliyati noverbal vositalar tadqiqiga qaratilgan bolib, ayniqsa, Amerika va nemis tilshunoslarining bu boradagi izlanishlari diqqatga molik. Chunonchi, R.L Birdwhistell, D.Efron, P.Ekman, V. Friesen, E.Hall, M.R.Key, F.Poyatos,G.L.Tragerlarning ilmiy izlanishlari jamiyatga va insonlar orasidagi munosabatga tasiri masalalariga bagishlanadi hamda paralinvistikada muhim bir o'rinn egallaydi.<sup>2</sup>

Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, muloqotning juda katta qismini noverbal aloqa tashkil etadi. Biz har kuni minglab noverbal belgi va harakatlarga, shu jumladan, gavda holati, yuz (mimika) ifodalari, ko'z ifodasi, imo-ishoralar hamda so'zlash ohanggiga o'z munosabatimizni bildira

Noverbal muloqot va xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872 yilda Charlz Darvinning "Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi" nomli asarining nashriyoti bilan boshlandi. O'sha vaqtdan buyon, so'zlarsiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi.<sup>3</sup>

Bugunga kunga kelib noverbal muloqotni ifodalovchi paralingvistik vositalarning 18 ta guruhgaga ajratilishi mumkinligi korsatib berilmoque.

- 1.Kinesika(imo-ishora harakatlari)
- 2.Vokalika(ovozning akustik harakatlari)
- 3.Tabiiy xususiyat(gavda qismi shakli soch rangi)
4. Gaptika(tana qismiga teginish)
- 5.Proksemika(joylashuv manzili)
- 6.Xronomika(muloqot vaqt)
- 7.Okuleksika(koz harakatlari)
- 8.Artefakt(kiyininsh bezanish va kosmetika).
9. Estetika(musiqa rang , rasm, va boshqa sanat)
10. Gastika(tam bilish muloqoti belgilari)
- 11.Olfaktika( xid bilish uning muloqoti)
- 12.Sistemologiya( insonni orab turgan tevaraak atrof)
- 13.Grafika (xarf raqam emblem, shartli belgi va boshqalar)

---

<sup>2</sup>Mehrabian A. - Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. — 2nd. — Belmont, CA: Wadsworth, 1981.

3. <https://azizapulatova.medium.com/noverbal-muloqotning-toqqiz-turi-8388eaa09df3>

14. Mimika(Yuzdag'i jilmayish va boshqa harakatlar)
  15. Ekstralinguistika (yigi kulgu yotal, xorsinish)
  16. Tovush belgilari(hmm, eee, uxxx)
  17. Pauza (pauza qilish, muloqotdan saqlanish)
- 18.Lokomatsiya(oqlanish, bazor qadam bosish )<sup>4</sup>

Noverbal muloqotning imo ishorala orqali yetkazilishi muhum usullardan biridur. Eng sodda imo-ishoralar qo'l silkitish, qo'l bilan ishora qilish hamda sonli miqdorlarni ko'rsatishda barmoqlardan foydalanish bo'lib, boshqa imo-ishoralar ixtiyoriy yoki ma'lum madaniyatga tegishli bo'lishi mumkin. Sud zali sharoitida, advokat boshqa bir advokatning dalillari zerikarli ekanligini bildirishda soatiga qarashi yoki guvoh tomonidan berilayotgan dalillarning ishonchliliga mensimaslikni ko'zini har tomonga aylantirish orqali ko'rsatishi mumkin.Bu kabi noverbal aloqa usullari kuchli va ta'sirchan ekanligini inobatga olib, ba'zi sudyalar sud jarayonida qaysi noverbal harakatlar ishlatilishi mumkinligiga cheklovlar qo'yadi.

Proksemika, bu suxbatdosh bilan bo'ladigan oraliq masofa. Odamlar ko'pincha "shaxsiy makon" ga bo'lган ehtiyojlariga murojaat etishadi, bu ham noverbal aloqaning muhim turidir.Masalan, odamlar bilan tasodifiy suhbat chog'ida zarur bo'lган shaxsiy maydon hajmi odatda 46 sm dan 1 metrgacha farq qiladi. Boshqa tomondan, ko'pchilik bilan gaplashganda shaxsiy masofa 3 metrdan 4 metrgacha farqlanadi.

Tashqi ko'rinishga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham norverbal aloqa vositasi hisoblanadi. Tadqiqotchilar tashqi ko'rinish odamlarning qanday qabul qilinishida va hatto qancha pul topishlarida muhim rol o'ynashi mumkinligini aniqladilar. 1996 yilda o'tkazilgan bir tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hamkasblaridan ko'ra ko'proq yoqimtoy deb baxolangan advokatlar 15 foiz ko'proq ish haqqi olishgan.Madaniyat qiyofalarning qaytariqa baholanishida ahamiyatli o'ringa ega. G'arb madaniyatida ozg'inlikning qadrlanish ehtimolligi ko'proq bo'lsa, ba'zi Afrika madaniyatları to'lachadan kelganlikka sog'lom va ijtimoiy ahvoli yaxshiroq deb qaraladi.

Yuz ifodalari noverbal muloqotning juda katta hissasiga to'g'ri keladi Birgina tabassum yoki qovoq solish bilan qanchadan-qancha ma'lumot yetkazib berilishi mumkinligi haqida bir o'ylab ko'raylik. Kishi yuzini, odatda, uning so'zlarini eshitishdan ancha oldin payqaymiz.Noverbal muloqot va xatti-harakatlar madaniyatlar o'rtasida keskin farq qilishiga qaramasdan quvonch, qayg'u, jahl va qo'rquvni ifodalovchi yuz ifodalari dunyoning turli burchaklarida yashovchi insonlar uchun bir xildir.<sup>5</sup>

---

<sup>4</sup> Kurbanov M.A. Paralingvistika/Oquv qollanma.-Andijon: STEP BY PRINT Mchj, 2021.-217b

<sup>5</sup> <https://azizapulatova.medium.com/noverbal-muloqotning-toqqiz-turi-8388eaa09df3>

Mimika orqali inson qanday xis tuyg'ularni boshdan kechirayotganligini anglash mumkin.Mimika orqali oqituvchi his-tuygularini yetkazadi,fikrni takidlaydi(qoshlarini burish, tabassum qilish,sinfda muayyan bir holatni keltirib chiqaradi, tovush ritmini tartiblaydi, boshini egish noaniqlik, ikkilanish, yangi soz izlashni ifodalaydi.Noverbal muloqot asoschilari charli Chaplin va boshqa kino aktyorlaridir.<sup>6</sup>

Demak, jamiyatdan tashqari til va tilsiz jamiyat bolmaganidek,tilning ijtimoiy mohiyati va muloqotning eng asosiy vositasi doimo insoniyatning diqqat markazida bolishi tabiiydir.Albatta bunda paralingvistik vositalardan foydalanishga bolgan ehtiyoj katta. Zero, jahonda hukm surayotgan bozor iqtisodiyotida noverbal va verbal muloqotning orni bundan buyon ham oshib borishini davrning ozi taqazo etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, paralingvistik vositalar fikr ifodalashda eng sodda, eng tejamli vositalardan hisoblanadi.Xalqlarning o'zaro bir birlarini tushunishiga, hayotiy tajribalarini atroflicha bilishga,xalqlar haqidagi umumiy qarashlariga, ularning urf odatlari yashash tarzi , hamda xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni o'rnatishga noverbal muloqotning orni katta.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/paralingvistik-imo-ishoraga-asoslangan-frazeologizmlar>
2. Mehrabian A. - Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. — 2nd. — Belmont, CA: Wadsworth, 1981.
3. <https://azizapulatova.medium.com/noverbal-muloqotning-toqqiz-turi-8388eaa09df3>
4. Kurbanov M.A. Paralingvistika/Oquv qollanma.-Andijon: STEP BY PRINT Mchj, 2021.-217b
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/noverbal-muloqot-va-uning-kommunikatsiyadagi-o-rni/viewer>
6. Источник: <https://haqida.su/muloqot-haqida-tushuncha-yangi-talqinda-ko-rinish>
7. Супрун А. Методы изучения лексики. –Минск: БГУ, 2001. – 306
8. Нурмонов А. Ўзбек паралингвистик воситалари // Танланган асарлар. 1-жилд. –Т.: Академнашр, 2012 –Б. 1
9. Басова А., Егоров С. История сурдопедагогики. –М.: 1984.– С.21.
10. Andreyeva G.M. Sotsiolnaya psixologiya. M.: 2000.
11. Басова А., Егоров С. История сурдопедагогики. –М.: 1984.– С.21
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/paralingvistik-imo-ishoraga-asoslangan-frazeologizmlar>
13. Kurbanov M. The Lingua-Pragmatic and Methodological Aspects of Nonverbal Means// Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 Volume 9.

---

<sup>6</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/noverbal-muloqot-va-uning-kommunikatsiyadagi-o-rni/viewer>